

## SINTAKSISNING O‘RGANISH OB‘YEKTI VA GAP NAZARIYASI

**Abdukhaliqova Sarvinozkhon**, FerSU,  
English Language and Literature Faculty,  
Teacher at Teaching English Language  
Methodology Department

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola sintaksis haqida bo‘lib, sintaksisning o‘rganish ob‘yektini va gap nazariyasi hamda sintaksis bo‘yicha turli olimlar fikrlarining tahlili bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar va iboralar:** *tilshunoslik, grammatika, sintaksis, sintaksis ob‘yektini, gaplar.*

### ANNOTATION

*This article describes syntax, the object of study of syntax and sentence theory, as well as the analysis of the opinions of various scientists on syntax.*

**Keywords and expressions:** *linguistics, grammar, syntax, syntax object, sentences.*

### АННОТАЦИЯ

*Эта статья посвящена синтаксису, объекту изучения синтаксиса и теории предложений, а также анализу мнений различных ученых о синтаксисе.*

**Ключевые слова и выражения:** *лингвистика, грамматика, синтаксис, объект синтаксиса, предложения.*

O‘zbek tili sintaksisi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida dastlab Fitrat tomonidan “nahv” atamasi ostida o‘rganildi. Shundan so‘ng H.Qayumiy va S.Dolimov ham ikki qismli “Grammatika” asarini yozib, ikkinchi qismini “nahv” deb nomlaganlar<sup>1</sup>.

O‘zbek tilshunosligida birinchi marotaba sintaksis nomi ostida O.Usmonov va B.Azizov maktab grammatikasini nashr etdilar. Bu o‘zbek tili sintaksisi haqida birinchi ma‘lumot bergan ishlardan edi. Lekin, bitta kamchiligi bo‘lib, bu kitob faqat bolalarni o‘qitishga mo‘ljallangan edi.

O‘zbek tili sintaktik birliklarni ilmiy asosda o‘rganish XX asrning 40-yillarda boshlangan. Sintaktik sath birliklarini o‘rganish Ovrupa tilshunosligining yutuqlari asosida chuqur o‘rganish A.G‘ulomov nomi bilan bo‘g‘liq. U “O‘zbek tilida aniqlovchilar” mavzusi bo‘yicha ilmiy ish qilgan. Shuningdek ushbu olim o‘zbek

<sup>1</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. – B.418

sintaksisi nazariyasiga “O‘zbek tilida so‘z tartibi” va “Sodda gap” nomli o‘z ilmiy asarlari bilan katta ulush qo‘shgan.

Shundan so‘ng A.N.Konovning “O‘zbek tili grammatikasi” asarining rus tilida nashr etilishi va unda o‘zbek tilining barcha sathlari, jumladan, sintaktik sath birligining ham tadqiq etilishi o‘zbek tili sintaksisiga keng ilmiy jamoatchilik diqqatining jalb etilishiga turtki bo‘ldi<sup>1</sup>.

O‘zbek tili sodda gap sintaksisning takomillashuvida B.O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya”, N.Makhmudovning “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda mazmun va shakl assimetriyasi” monografiyalari ahamiyatli bo‘ldi. O‘zbek tili qo‘shma gap sintaksisi shakllanishida akademik G.Abdurakhmonov va M.Askarovlarning xizmati kattadir. O‘zbek tili qo‘shma gaplarning tadqiqiga bag‘ishlangan “Hozirgi zamon o‘zbek tilida ergashgan qo‘shma gaplarning sostavi” asari bilan o‘zbek tilida qo‘shma gaplar alohida tadqiq qilinishni boshladilar. 1955 yilda F.Kamol “Qo‘shma gaplarga doir masalalar” kitobini nashr etdi va unda qo‘shma gaplarning maqomi, ularning tasnifi haqida dastlabki ma’lumot berdi<sup>2</sup>.

Sintaksis tarixida uning o‘rganish ob‘yekti masalasida turli xil qarashlar mavjud: so‘z turkumlari sintaksisi, so‘z birikmasi sintaksisi, so‘z birikmasi va gap sintaksisi, gap sintaksisi. Mazkur maqolada biz gap va uning bog‘lovchilari sintaksisi masalasiga e’tiborimizni qaratamiz.

Gap nazariyasi ham turli tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Til o‘z kommunikativ vazifasini sintaktik qurilma – gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisa ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki o‘ziga xos. Zero, har qanday sintaktik hodisada so‘z va morfologik ko‘rsatkichni ko‘ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatni belgilashda leksik va morfologik omilga tayaniladi. Gap, aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi. So‘z birikmalarini o‘rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so‘zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo‘sindagi so‘zning birikuvini bo‘lgan qo‘shma so‘z (*uchburchak, ertapishar, sotib olmoq*), frazeologik birlik (*ilonning yog‘ini yalagan, po‘konidan yel o‘tmagan, ko‘ngli bo‘sh*) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog‘lanishga ega emas. *Sintaksis* atamasi *grammatika* atamasining o‘zi kabi ikki ma’noli: 1) tilning sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning tarkibiy qismi. Atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo‘llab, birinchi ma’no ifodasi uchun *sintaktik qurilish* atamasini ishlatamiz.

<sup>1</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. – B.418

<sup>2</sup> Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. – B.422

Soʻz birikmasi va gap – sintaksisning asosiy birliklari. Shunga koʻra, sintaksis ikkiga boʻlinadi: 1) soʻz birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi.

Soʻzning nutqda oʻzaro aloqaga kirishuvidan soʻz qoʻshilmasi vujudga keladi. Soʻz qoʻshilmasini ikki guruhga birlashtirish mumkin: 1) gap (*Osmon tip-tiniq*); 2) soʻz birikmasi (*tip-tiniq osmon*). Til jamiyatda aloqa qilish, axborot uzatish vositasi hisoblanadi. Axborot uzatish esa gap orqali amalga oshiriladi. Demak, gap fikr ifodalaydi. Soʻz birikmasi fikr emas, balki soʻz kabi tushuncha ifodalaydi. (Biroq soʻz birikmasi ifodalagan tushuncha soʻz ifodalagan tushunchadan farqlanadi.) Koʻrinadiki, sintaksisning bosh birligi gap, soʻz birikmasi soʻz kabi bevosita yoki bilvosita uning tashkil etuvchisidir. Sintaktik birlik – gap va soʻz birikmasi – soʻzning qoʻshilishidan hosil boʻlishi, bu qoʻshilishning esa turli vosita (qoʻshimcha, yordamchi soʻz) va usul (masalan, tobe aloqaning turi) orqali yuzaga kelishi sintaksisning boshqa sathlar bilan zich aloqada ekanligini koʻrsatadi. Demak, nutqda: 1) soʻzlar oʻzaro sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik – soʻz birikmasi vujudga keladi. Soʻzlarning oʻzaro birikib, tushuncha ifodalovchi birlik hosil qilish qonuniyatini oʻrganish – soʻz birikmasi sintaksisining vazifasi; 2) soʻz fikr ifodalashga ixtisoslashgan nutqiy birlik – gapni shakllantiradi.

Gap barcha tillarda grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Gap turlarining oʻrganilishiga, gap tadqiqi bilan bogʻliq muammolar va turli tillarda gaplarning taqqoslash va qiyoslash masalalariga alohida eʼtibor qaratiladi. Shuning uchun turli oila va guruhlarga mansub tillardagi gaplarni va ularning turlarini qiyoslash va farqlash bugungi kun dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda gaplar tilshunoslikning turli yoʻnalishlarida oʻrganilib kelinmoqda, jumladan, kontrastiv tilshunoslik, areal tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmatik tilshunoslik. Albatta, tilshunoslikning har bir yoʻnalishida gaplar va ularning muammolarini tahlil qilish yangicha yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Shuning uchun, gaplarning asosiy til birligi sifatida alohida oʻrganish mavzusi diqqatga sazovordir. Ingliz va oʻzbek tillarida gaplarning qiyosiy tahlili hali beri keng miqyosda oʻrganilmagan va ochilmagan.

Maqolaning ushbu qismi gaplar masalasiga bagʻishlanar ekan, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tavsiya etilgan gaplar taʼriflarini keltirishimiz lozimdir. Gapning ifodasiga bagʻishlangan taʼriflar nihoyatda koʻpdir. Tadqiqotchilarning gap masalasining oʻrganilishiga turli aspektdan yondashganligi tufayli gap taʼriflari ham rang-barangligi bilan ajralib turadi.

I.Ivanova va V.Burlakovaga asosan gap soʻzlardan iborat boʻlgan nutqning minimal ajralmas qismi hisoblanib, kommunikativ niyat va sintaktik ifodalanishi orqali taʼriflanadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ivanova I., Burlakova V., Pocheptsov G., Theoretical Grammar of modern English language.– Moscow.1981

V.Ilyishning gapga bergan ta'rifini quyidagicha izohlash mumkin: "Gaplar nutq birligi sifatida grammatik tuzilishi bilan ajralib turadi. Til qonunlariga moslashishadi va fikrni yetkazish uchun xizmat qiladi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, gap nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki suhbatdoshning munosabatini namoyish etadi.

O'zbek tilshunosi A.Iriskulov gap ta'rifiga o'z munosabatini bildirgan: "Gap uchta asosiy omilni o'z ichiga olishi mumkin: nutq, notiq va voqelik<sup>2</sup>".

O'zbek tilshunosligida ham gaplar masalasi keng tadqiq qilingan. Tadqiqotchilar va olimlar o'z munosabatini gap tasnifiga turlicha bildirgan. A.Nurmonov gapni sintaktik sathning eng kichik birligi sifatida izohlaydi. "So'z birikmasi va boshqa sintaktik tushunchalar shu birlikning elementlari. Hozirgi hamma sintaktik nazariyalarda gap asosiy sintaktik birlik sifatida tan olinsa ham, ammo shu vaqtga qadar u o'zining aniq bir umumiy ta'rifiga ega emas. Hozirgi kunda gapning 300dan ortiq ta'rifi mavjud. Antik davrdan XIX asrga qadar tilshunoslikda hukm surgan mantiqiy olim vakillari gapga hukm nuqtai nazaridan yondashib, so'zlar vositasida anglashilgan fikr deb hisoblaydilar<sup>3</sup>". A.Nurmonov gapning 300 dan ortiq ta'rifi turli aspektlarga asoslanganligini ham izohlaydi: "Gapning uch yuzdan rang-barang ta'riflari uning murakkab struktura ekanligidan dalolat beradi. Ularda gapning turli qirralari asosga olinadi: sintagmatik aspekt (Tenyer asosi), nominativ aspekt (Bogdanov asosi), mantiqiy aspekt (Buslayev asosi), morfologik aspekt (Fortunatov asosi), kommunikativ aspekt va h.k."<sup>4</sup>.

Gapning tilshunoslikda 300 ta'rifi borligiga qaramay, miloddan avvalgi ikkinchi asrda yashagan Dionisiy Frakiyskiyning gap to'la yoki tugal fikrni anglatuvchi birikma yoki konstruktsiya degan ta'rifi hanuzgacha o'z qiymatini yo'qotgani yo'q<sup>5</sup>.

Gaplarning tasnifiga kelsak, turli olimlar bu masalaga turlicha murojaat qilishgan. B. A. Ilyish nazariyasiga ko'ra, gaplar ikki jihatdan guruhlariga bo'linishi ifodalanadi:

a) kommunikatsiya turlariga ko'ra (o'z navbatda, u yana uchta kichik guruhga bo'linadi: xabar, so'roq va buyruq gaplar);

b) tuzilishga ko'ra (ushbu tamoyil oddiy va birikma gaplarga bo'linadi)<sup>6</sup>.

Bundan tashqari, Ch.Frayz gaplarning quyidagi tasnifini tavsiya etib, ularni kommunikativ bo'lgan va kommunikativ bo'lmagan aspektda izohlaydi. Kommunikativ gaplar, o'z navbatida, quyidagilarga bo'linadi:

a) "Og'zaki" javoblar bilan salomlashish, qo'ng'iroqlar va savollar;

b) so'rovlar, buyruqlar kabi "harakat" javoblari orqali so'zlashuvlar;

1 Ilyish B. The structure of Modern English.— Moscow.1965

2 Iriskulov A.T. Theoretical Grammar of English.—Tashkent. 2006

3 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent "Akademnashr", 2012. — B.288

4 Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent "Akademnashr", 2012. — B.288

5 Бурунов Ж. Инглиз ва Ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Т.,1973

6 Ilyish B. The structure of Modern English.— Moscow.1965

c) suhbatni davom etish uchun diqqat e'tiborini talab qiladigan aloqa vositalari.

Gaplarning kommunikativ aspektiga ko'ra A.Nurmonov propozitsiv va predikativlik nazariyasini ham izohlaydi. Jumladan, G.Zolotova, E.Benvenist, A.Smirnitskiy, A.Shaxmatov, A.Potebnya, M.Steblyn-Kamenskiy, A.Peshkovskiy, A.Xolodovich va V.Vinogradov kabi olimlarning nazariyalariga yondashib, gap strukturasi atroflicha talqin etgan.

O'zbek olimi A.T.Iriskulov gaplarni tasniflashda barcha mezonlarni e'tiborga olib, ingliz gaplarni tasniflash uchun o'z munosabatini bildirdi. Jumladan, u gaplarni uch guruhga bo'ldi:

- a) gaplarning tuzilishiga asosan;
- b) so'zlovchining maqsadiga muvofiq;
- c) gapning barcha qismlarining mavjudligi bilan bog'liqligi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu tasnifda olim yuqorida berilgan barcha tasniflarni jamlashga va yagona bitta tasnif orqali berishga harakat qilgan. Mazkur mezonlar asosida o'zbek va ingliz tillarda gaplar taqqoslanadi va asosiy fikr tahlil qilinadi.

Ingliz tili tizimiga asoslangan gaplar tasnifi o'zbek tilida gaplar tahlilida ham keng foydalanib kelinmoqda. Bu asosda A.Anorbekova va Sh.Mirzayevalarning tadqiqotida o'zbek va ingliz tilida gaplarni qiyoslash uchun tahliliy, tavsifiy va qiyosiy usullaridan foydalanilgan, gaplar so'zlovchining maqsadiga ko'ra va gaplarning tuzilishiga ko'ra ifodalangan.

Ko'rinib turibdiki, gaplar tadqiqi nihoyatda jiddiy va keng qamrovli yondashuvlarni talab qiladi. Gapning turli tasnifi bo'yicha tillarni qiyoslash va taqqoslash bugungi kun tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri, deb hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayevna, K. N. (2022). Aphorisms in Different Language Systems. *Linguoculturological Research. American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 325-328.
2. Abdumutallibjonovna P. S. et al. LEXICAL AND MORPHOLOGICAL MEANS OF EXPRESSING PLACE RELATION //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 35-38.
3. Abdukhalimova Sarvinozhon. (2023). ERRORS AND OBSTACLES IN INTERCULTURAL COMMUNICATION. *Journal of New Century Innovations*, 20(4), 108–112.
4. Abdukhalimova Sarvinozhon Usmonali qizi. (2022). NATIONAL CULTURAL PECULIARITIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH

ZOONYMIC COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(6), 158-160.

5. Abdukhalimova Sarvinozhon. (2023). HOZIRGI INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ZIDLOV BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLARNING SEMANTIK TAHLILI. *PEDAGOGS Jurnal*, 27(1), 153–157.

6. Ahundjanova, M. A. (2020). METHODS AND METHODS OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE. *Экономика и социум*, (11), 46-49.

7. Ashurali Mirzayev. (2023). Psychological aspects and features of teaching foreign languages to ESP students through online technologies. *Involta Scientific Journal*, 2(2), 80–83.

8. Chanyoo N. A corpus-based study of connectors and thematic progression in the academic writing of thai efl students.– 2013.–P.35

9. Diyora, N., & Mirzayev, A. (2023). THE ROLE OF PARALINGUISTIC TOOLS IN THE COMMUNICATION PROCESS. *Involta Scientific Journal*, 2(1), 17-22.

10. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.

11. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигида “Термин” ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.

12. Gulmira A. THE CONCEPT OF “FEAR” AND ITS STUDY // *Involta Scientific Journal*. – 2022. – Т. 1. – №. 13. – С. 96-99.

13. Holbekova, M., Mamajonova, M., & Holbekov, S. (2021). COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Экономика и социум*, (3-1), 83-85.

14. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o‘zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.

15. Ibragimjonovna, A. M. (2022). Developing professional communicative competence of medical students in a foreign language. *Eurasian Scientific Herald*, 15, 45-50.

16. Ilyish B. The structure of Modern English.– Moscow.1965

17. Iriskulov A.T. Theoretical Grammar of English.–Tashkent. 2006

18. Isakovna, T. N. (2017). The Symbol of Mirror and its Main Poetic Functions in Fairy Tales. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(2), 7-11.

19. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal*, 1(11), 94-99.
20. Ivanova I., Burlakova V., Pocheptsov G., Theoretical Grammar of modern English language.– Moscow.1981
21. Kakhorova Tursinoy, & Abdukhalimova Sarvinozkhon. (2023). "METHODOLOGY OF INTERACTIVE DIDACTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH DURING MEDICAL EDUCATION". *Involta Scientific Journal*, 2(2), 36–40.
22. Kosimova, M. U. (2021). Different classification of functional styles. *Ученый XX века*. 4 (85).7-8
23. Kosimova,M.U. (2022) The characteristics of scientific style. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. 12(05). 931-933
24. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 259-261.
25. Mamajanova, M. (2021). MODEL CONCEPT MODELING IN LINGUISTICS TYPES OF LINGUISTIC MODELS. *Экономика и социум*, (1-1), 160-163.
26. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
27. Mohira, A., & Isakjon, T. (2022). METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 68-71.
28. Murray S.E. Complex connectives / Doctoral thesis. Department of Linguistics Cornell University Ithaca, NY 14853
29. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent "Akademnashr", 2012. – B.288
30. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent "Akademnashr", II jild, 2012. – B.418
31. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent "Akademnashr", II jild, 2012. – B.422
32. Oxunov, A. O. O. (2021). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLAR (INTERJECTION) NING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 401-406.
33. qizi Tojiboyeva M. S., Pakirdinova S. A. KONSEPT-TIL VA MADANIYAT OLAM MANZARASINI IFODALOVCHI VOSITA //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 290-293.

34. Rustambek, O., & Ashurali, M. (2022). THE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 106-110.
35. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *sign*, 1, 22.
36. Uzakova G.Z. (2022) Intensification as a multilevel system of a modern English. *Texas journal of philology, culture and history* 11(12) 29-31
37. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).
38. Ахмадалиева Г. Teaching reading strategies in ELT //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/S. – С. 166-170.
39. Бурунов Ж. Инглиз ва Ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Т.,1973
40. Г.З.Узакова. (2023). СЎЗ МАЪНОЛАРИДАГИ ИНТЕНСИВЛИК МУАММОСИ. *Involta Scientific Journal*, 2(2), 121–123.
41. Карабаев, М., Абдуманонов, А. А., & Ахмедова, М. И. (2012). Компьютерная программа для формирования иноязычной профессиональной коммуникативной компетенции студентов медиков. *Свидетельство Патентной ведомстве Республики Узбекистан N: DGU, 2453*.
42. Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. – Самарқанд, 2008.
43. Узакова, Г. З. (2022). THE INFLUENCE OF NATIVE LANGUAGE IN LEARNING/TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 38-41.